

## RAQAMLI IQTISODIYOT KO'Z O'NGIMIZDA YARALMOQDA

*Istamova Shaxinabonu Rahim qizi*  
*Toshkent davlat yuridik universiteti*  
*1-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada insoniyat taraqqiyotining hozirgi davri va istiqbolida raqamli iqtisodiyotni o'rni va uning rivojlanishi haqida so'z yuritilgan. Shu jumladan raqamli iqtisodiyotning o'zi nima? Raqamli iqtisodiyot vazifasi va maqsadlari, raqamli iqtisodiyotni O'zbekistonda rivojlanishdagi to'siqlar haqida to'xtalib o'tilgan. Raqamli texnologiyalar nafaqat davlat va jamiyat boshqaruvini takomillashtiradi shu bilan birga ijtimoiy sohada odamlarga katta qulayliklar ham yaratadi.

**Tayanch so'zlar:** raqamli iqtisodiyot, raqamli boshqaruv, iqtisodiyot, raqamlashtirish, internet, kommunikatsiya, raqamli texnologiya.

Darhaqiqat, raqamli iqtisodiyot bugungi kunda dolzarb mavzulardan biridir. Hozirgi kunda ko'plab rivojlangan mamlakatlarda raqamli iqtisodiyot va ularni rivojlantirishga bo'yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda. Raqamli iqtisodiyotga bo'lgan qiziqish jamiyat va iqtisodiyotda ro'y bergan jiddiy o'zgarishlar tufayli sezilarli darajada o'sdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Avvalo "Raqamli iqtisodiyot o'zi nima?" – degan savolga juda oddiy va eng sodda maishiy misol orqali tushuntirsak barchaga birday tushunarli va qiziqarli bo'ladi deb o'ylayman: masalan, bizga yangi (xaridorga) qo'l soat kerak. Uni bozordan o'zi bevosita tanlab naqd pulga sotib olsa, bu an'anaviy iqtisodiyot. Ijtimoiy tarmoqdagi telegram Instagramdagi biron savdo boti yoki Uzum market, AliExpress onlayn do'konlari orqali o'ziga ma'qul tovarni tanlab, tovar egasiga pulni elektron to'lov tizimi orqali to'lash va tovarni yetkazib berish xizmati orqali olish – raqamli iqtisodiyot deyiladi, yangi raqamli iqtisodiyotning bir ko'rinishidir. Aslini olganda barchamiz allaqachon raqamli iqtisodiyot ichidamiz uning qulayliklaridan foydalanamiz. Masalan oyliklar va bizning stipendiyalarimiz ham plastik kartalarga tushishi, elektiron to'lov orqali kommunal xizmatlarga to'lov qilish, kartadan kartaga pul o'tkazish, uyga taom buyurtma qilishimiz va hokazolar. Ushbu muammolar bosqichma-bosqich, tizimli, dunyo tajribasidan kelib chiqib hal qilinsa, demak O'zbekiston ham bemalol raqamli iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlardan biri bo'la oladi. Chunki Raqamli iqtisodiyot deganda, raqamli kommunikatsiyalar IT yordamida olib boradigan iqtisodiyot tushuniladi.

Lekin shuni ham ta'kidlash kerak-ki, O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot O'zbekiston potensialiga nisbatan bir necha barobar sekinroq rivojlanmoqda.

Yaniy imkoniyat bor, kerakli resurslar mavjud lekin rivojlanish ancha sust. Bunga sabab sifatida ushbu omillarni keltirish mumkin:

- Ushbu sohada qonunchilikning aniq bo'lmaganligini,
- ko'plab sohalardagi monopoliyani,
- internet tezligini pastligi va uni sifatsizligini ,
- fuqarolarda kompyuter savodxonligining pastligi
- axborot texnologiyalari bo'yicha mutaxassislarning yetishmasligi yoki ularni boshqa mamlakatlarga ketib qolishi
- axborot texnologiyalarning xavfsizligi mustahkamlanmagani

Ammo shuni ham takidlab o'tish joyizki, asosan raqamli iqtisodiyotni O'zbekistonda qanday rivojlantirish bu biz yoshlarning qo'lidadir.

Shuning uchun Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish borasida , Prezidentimiz boshchiligida olib borilayotgan islohotlarning bosh maqsadi va ustuvor loyihalarining mohiyatidir. 2020-yil mamlakatimizga „Ilm , marifat va raqamli iqtisodiyot rivojlantirish yili “ deb e'lon qilinganligi ham bu sohada yangi bosqichlarni ochib , ” 2030- Raqamli O'zbekiston” strategiyasi amalga oshirish boshlandi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida 10 sentabr kuni axborot texnologiyalari sohasida salohiyatli kadrlar tayyorlash va iqtidorli yoshlar bilan tizimli ishlash masalalari muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi. Yig'ilishda ta'kidlanishicha, raqamli iqtisodiyot mamlakat taraqqiyotining asoslaridan biri sifatida belgilangan. "Bir million dasturchi" loyihasi ishlab chiqilib, loyiha doirasidagi mashg'ulotlarni tashkil etish uchun uzbekcoders.uz o'quv portal ishga tushirildi. Raqamli sektorini rivojlantirish borasida davlat ko'lamli chora- tomonidan keng tadbirlar amalga oshirish maqsadida prezidentimiz tomonidan bir qator normativ-huquqiy hujjatlari imzolanganligini ham e'tirosh etishimiz lozim deb o'yladim. Yil boshidan buyon, IT Park rezidentlari soni 35 foizga ko'payib, ularda 6 mingdan ortiq yangi ish o'rni yaratilgan. Joriy yilning 8 oyida ishlab chiqilgan dasturiy mahsulotlar 26 million dollarga eksport qilingan. Kelgusi 3 yilda iqtisodiyot sohalorida yana 300 ta loyihani amalga oshirish rejalashtirilgan.

«Raqamlashtirish» so'zi aslida yangi atama bo'lib qisqacha , innovatsion boshqaruv va ish yuritish jarayoniga IT yechimlarning jalb etilishini tushiladi

Ayniqsa, bu – transport, savdo, logistika va shu singari internet bilan faol ishlovchi sohalarga cheksiz qulayliklar yaratadi. Eng ahamiyatlisi, bu ko'rsatkichlar barqaror tarzda o'sib ham boradi.

Xizmat ko'rsatish sohasi haqida gapiradigan bo'lsak, axborot texnologiyalari ko'plab kundalik vazifalarni hal qiladi, buning natijasida esa yirik ko'lamdagi amallar tezroq, arzonroq, ancha qulayroq va o'rtadagi vositachilarsiz bajariladi

Hop endi ,raqamli iqtisodiyotning ahamiyati haqida gapiradigan bo'lsak, raqamli iqtisodiyotning mamlakat YaIMdagi ulushi har yili taxminan 20 foizga o'sishi

(rivojlangan mamlakatlarda bu ko'rsatkich 7 foiz atrofida) uning ahamiyati belgilaydigan ko'rsatkich sifatida qaraladi.

Yuqoridagilarni tahlil qiladigan bo'lsak, tangani ikki tomoni bo'lganidek, afsuski, jamiyatni raqamlashtirish insonga nafaqat manfaat va qulayliklar, balki yangi muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Muammolardan biri jamiyatning yangi raqamli muhitida odamlar, mamlakatlar va ularning mintaqalari o'rtasidagi axborot tafovutini misol qilsak bo'ladi yoki kiber hujumlarni. Global dunyo tartibining shakllanishi bilan raqamli iqtisodiyot shakllandi, bu nafaqat iqtisodiy. aholi uchun qulayligi, ular ma'muriy to'siqlarni chetlab o'tib, ularga o'z vaqtida javob olish imkoniyatiga ega bu esa vaqtlarni tejashga va korrupsiya va "qora iqtisodiyotni" yo'q qilishga xizmat qilmoqda. Raqamli iqtisodiyot tadbirkorlar va o'zi uchun ishlaydigan insonlarga yangi ufqlarni dadil ochib beradi.